



NAZAR ESHONQULNING QULTOY HIKOYASI TAHLILI

Oripova Nurafshon Olimjon qizi

Alisher Navoiy nomidagi ToshDO'TAU

tayanch doktoranti

Toshkent, O'zbekiston

nurafshonoripova@gmail.com.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10116061>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 7-noyabr 2023 yil

Ma'qullandi: 10-noyabr 2023 yil

Nashr qilindi: 11-noyabr 2023 yil

KEYWORDS

farzandsizlik mavzusi, ayol obrazi, xarakter, motiv, milliylik, Nazar Eshonqul, hikoya, qissa.

ABSTRACT

Ushbu maqolada zamonaviy o'zbek adabiyotida qasoskor ayol obrazining ochib berilishi haqida so'z boradi. Adibning "Qultoy" hikoyasi tahlili asosida o'zbek adabiyotida tasvirlangan ayol obrazi tavsiflangan

Milliy adabiyotdagi har bir hodisaning sababini tashqi omillardan emas, avvalo, ona zaminning o'zidan, real voqelikdan, zamona ehtiyojidan izlamoq darkor. Bu xusud yozuvchi Nazar Eshonqulning o'zi shunday fikr bildiradi: "Adabiyot hech qachon yakka holda taraqqiy etgan emas. Bir insonni fikridan qaytarish yoki o'z haqiqati bo'lgan shaxsning qarashlarini o'zgartirish oson emas. Chunki inson o'z maslagidan voz kechishi, bosib o'tgan yo'lini, yashash tarzini inkor etishi, men adashibman, deya osongina tan olishi hazilakam gap emas. Bu qalb va iroda bilan kechadigan jarayon. Axir, umr davomida singdirilgan mafkurani yangilashning o'zi bo'lmaydi-da! Jahon adabiyoti dunyodagi yuzlab xalqlarning adabiyoti, shu jumladan bizning ham. U bizga begona adabiyot emas. Shuning uchun jahon adabiyoti tushunchasiga cho'chib, xavotirlanib qarash noo'rin. An'analar adabiyotdan adabiyotga o'tadi. Kimda nimaga ehtiyoj bo'lsa, o'shani oladi. Men ham o'z ehtiyojimga yarasha olganman. Kimga kerak bo'lsa bizdan oladi. Men ta'sirni juda oddiy tushunaman, shu sababli cho'chimayman. "Boshqacha yozish" agar o'ziga xos yozish bo'lsa, bu muqarrar hodisa. Agar u chiranish, oliftachilik bo'lsa, u hech narsa, hatto taqlid ham emas. Taqlid ham taqlid qilinayotgan narsaga mos bo'lishi kerak. Bo'lmasa u karnay bo'laman deb chirangan surnayning holiga tushadi. Gap taqlid yoki ta'sirda emas: gap iste'dodda. Yozilgan asarda iste'dod seziladimi, yo'qmi? Agar sezilsa, xavotir noo'rin. U baribir ta'sir doirasini yorib chiqadi". Asl kasbi insonshunoslik bo'lgan adabiyot hamma davrlarda ham insonni e'zozlagan. O'zbek realistik nasri bundan mustasno emas, albatta. Biroq bugungi davr adabiyoti va san'atining bosh xususiyati insonparvarlik tuyg'usining har qachongidan chuqurroq, kengroq va yuksakroq darajalarga chiqishi bilan ifodalanadi. 80-yillarning avvalida o'zbek hikoyachiligida xuddi shunday ko'tarilish kuzatildi. Tasvirlanayotgan qahramonga shaxs sifatida e'tibor kuchaydi, ya'ni insonning shaxslik a'moli badiiy tadqiq ob'ektiga aylana boshladi. Insonparvarlik, shaxsparvarlikda namoyon bo'ldi. Shaxs fenomenini tadqiq etishga urinish intellektual qahramon obrazlarining yaratilishiga, shuning barobarida badiiy tasvir vositalari doirasining kengayishiga olib keldi. Tabiiy, realistik milliy badiiy tafakkur bunday miqyosga dabdurustdan erishmadi, albatta, balki yetuk shaxslik

martabasining ibtidosi bo'lmish oddiy insoniyat qadr-qimmatni, nafsoniyatni anglashga urinishlardan boshlandi. Yozuvchi Nazar Eshonqul hikoyalarda esa bu ko'rinish o'ziga xos tarzda bo'y-bast ko'rsatib borayotir. "Uyg'onish badiiyati insonni jo'n va yuzaki tushunishdan, uni bir yoqlama talqin etishdan voz kechdi, – deb yozadi filologiya fanlari nomzodi Xurshid Do'stmuhammad, – o'zbek hikoyachiligida bu o'ziga xoslik nasihatbozlikdan qutulishda o'z ifodasini topdi. Misol uchun "oqpadarlik – yomon", ichkilikbozlik, poraxo'rlik – illat" singari "g'oya"lar hikoyalarda o'z qadr-qimmatini yo'qotadi. Ishlab chiqarish mavzusidagi jasoratlar madhi o'rnini qahramonning shaxs sifatidagi kamolini izlash tasviri egalladi. Qahramonlarning ijobiy yoki salbiyligini belgilovchi mezonlar o'zgardi. Qahramon shaxsi, ruhiy olami, shuuri tasviriga moyillikning kuchayishi hikoyaning syujet qurilishini, tasvir maromini, konfliktlar tabiatini yangiladi".

Darhaqiqat, adib ta'kidlaganidek, inson ruhiy holatini taftish etuvchi, uning o'zligini, "men"ini kashf etishga qaratilgan modern adabiyoti Sharqning ulkan tafakkur qudrati bilan yaratilgan. Bu borada yozuvchi Nazar Eshonqul fikr bildirar ekan, xalqimizning qadimiy ijod namunalarini yuqori baholab: "Turkiy xalqlar asotir va eposining ta'sir ko'lami shu darajada kengki, biz hatto buni tasavvur ham qilolmaymiz.

Agar biz ana shu merosni o'zlashtira olsak, g'arb adabiyoti nimadan "ozuqlangan"ini ham, chinakam ma'nodagi adabiyot o'zi nimadan iborat ekanligini ham tezda tushunib yetamiz".

Nazar Eshonqul asarlarini o'qib turib yozuvchi ijodidagi ko'zga tashlanadigan jihatlar asosan xalq mifologiyasi asosida, uning o'zagidan ruh olib yaratilganligiga amin bo'lasan.

Nazar Eshonqul hikoyalarda dunyoni, insonni qayta nazardan o'tkazar ekan, shaxs ehtiyojlari va manfaatlarini birinchi o'ringa qo'yadi. Har qanday qadriyat shaxs manfaati nutqayi nazaridan baholanadi. Bunday hollarda insonning, shaxsning eng nozik, eng bokira kechinmalari ham tarixiy hodisa ahamiyatiga teng ko'rinadi. Zero, dunyoni va insonni qayta tahlil etishga kirishgan lirik qahramon inson shuuri va qalbidagi eng xususiy hilqatlarga ham tap tortmay kirib boraveradi. Bu eng erka tuyg'u va istaklarni oshkora qilish joizmi? Yo nojoiz deb ikkilanmaydi, balki nima mavjud ekan, hammasini ko'rsatishga harakat qiladi. Ya'ni mavjudmi, bas, ular rad etilmaydi. Balki badiiy mushohada, mulohaza mavzuyiga aylantiriladi.

Bundan tashqari shuni e'tirof etish kerakki, Nazar Eshonqul hikoyalari tili o'ziga xosligi bilan ajralib turadi. Unda asar qahramonlarining ijobiy yoki salbiy qahramon ekanligi yozuvchi tilidan e'tirof etilmaydi. Aksincha, bu yumushni o'quvchining o'ziga qoldiradi, uni mushohadaga chorlaydi. Umuman olganda, asarda kimlar ulug'lanayotgani, qoralanayotgani ko'pincha bevosita emas, bivosita ifodalanadi. Majoziy, ko'chma ma'noli tasvirlar ta'rif-u tavsiflarga tez-tez murojaat etilib, ularning ustuvorligi ta'minlanadi. Eng muhimi, tasvirlardagi majozlar ko'chma ma'noli vositalar qahramonlarning betakror ruhiy dunyosini yoritishga xizmat qiladi. Badiiy adabiyotning asosiy maqsadi asar markazidagi inson hamda uning ichki dunyosini tadrijiylik asosida badiiy tasvirlash bo'lar ekan, Nazar Eshonqulning aksariyat asarlari inson va uning ko'ngil olami, ruhiy kechinmalari badiiy talqin etishga qaratilgani bilan e'tiborga sazovor bo'lib, yozuvchining adabiyot haqidagi kuzatishlari asosida o'z adabiy-estetik pozitsiya ijod laboratoriyasi va ijod psixologiyasini o'rganishda muhim manba bo'ladi. Nazar Eshonqul estetikasida har bir ijodkor o'z qiyofasiga ega bo'lishi uchun tashqi omillardan tashqari ichki „men“ini anglashi, individual shaxsni namoyon qiladigan tafakkur-u tasavvur olamini namoyon etmog'i kerak. Yozuvchining ijod jarayoni, ta'sirlanish omillari, bilim saviyasi, mahorati kabi masalalar adabiyotshunoslikning azaliy

muammolari jumlasidandir. Yangicha uslubda qissalar yozayotgan adiblarning dunyoni o'zgacha ranglarda ko'rishga bo'lgan ishtiyoqi oqibatida mutlaqo kutilmagan badiiy kashfiyotlar bo'y ko'rsatmoqda. Aslini olganda, mahalliy adiblarga taqlid qilib, hammaga tanish voqeanomalarni, xotimasi asarning avvalidanoq ma'lum bo'ladigan bir xil rangdagi syujet qoliplariga qaraganda yangilikka intilish har doim qadrlil sanaladi.

Xulosa o'rnida ta'kidlash mumkinki, adibning qissalarida sodda va samimiy qishloq hayoti, to'pori qishloq odamlarining inja tuyg'ulari aks etgan. Uning hikoyalaridan farqli o'laroq qissalarida qahramonlar kechinmalari va obrazlarning o'zaro munosabatlari kengroq va teranroq ochib berilgan. Qissalarda shakl va mazmun mutanosibligiga to'la amal qilingan deb aytish mumkin. Qahramonlar his-tuyg'ulari bo'rttirib, jilolantirib ifodalanishi uning ta'sir doirasini orttiradi, qalamga olinayotgan hissiyotning uzluksizligini ta'minlaydi. Jumladan, kechinma va fikrni umumlashtirishda, ifodalanayotgan fikrni aniqroq chizishga, tuyg'u ifodalar tadrijiga ham sharoit yaratadi. Demak ko'rinadiki, mazkur munosabat turli vositalar, rakurs va qirralarda namoyon bo'ladi.

Ayol qalbining sinoatlari haqida so'z aytmagan mutafakkir yo'q. Zaif jussasi bilan tog'larni ko'tarishga qodir bardoshi minglab tadqiqotlarga mavzu bo'lgan. Biroq hali-hamon ayol botini, ruhiyati sirligicha qolmoqda. Bu asrorga to'la mo'jizaviy olamni tadqiq qilmoqqa bel bog'lagan minglab adiblar, mutafakkirlar, faylasuflar uning ayrim jihatlarinigina ochib bera olgan, xolos. Yozuvchilar har bir asarini huddi o'z farzandidek ko'rishadi. Ularning ijod mahsuli ularning ruhiy kechinmalari va qaysidir ma'nolarda hayot yo'llari bilan bog'liq hisoblanadi. Biografik metod orqali tahlil qilinganda, adibning har bir asari o'ziga xos yaratilish tarixiga ega bo'ladi. Nazar Eshonqul o'zi bilan bo'lgan suhbatlarda uning barcha asarlaridagi ayol obrazlari xalq ichidan olinganligi va ularning barchasi hayotiy ekanligini bot-bot ta'kidlaydi.

Shubhasiz, adib asarlaridan ufuurib turadigan sodiqlik, vafo kabi inja tuyg'ularni targ'ib qiluvchi g'oyalari bilan ma'lum va mashxurdir. Aynan shu jihatdan ham adabiyot ixlosmandlari qalbidan joy egallay oladi. Lekin buning uchun adibdan kuchli mahorat, mehnat va samimiyat talab etiladi. Biz o'rgangan qissalarda aynan mana shu jihatlarining hammasi jamuljam.

Hozirgi noan'anaviy qissalar uslubida janr, syujet, kompozitsiya, gap qurilishi haqidagi nazariy qarashlarning parchalanganini kuzatish mumkin.

Qahramon ruhiyatida kechayotgan xayollar to'zonini bundan boshqacha tarzda ham yetkazish mumkin edi. Biroq bosib o'tgan yo'lidan arzirli ma'ni topolmagan, yoshlik orzulari armonga aylangan va bundan keyin qanday yashash haqida bosh qotirayotgan, tinmay o'zligini qidirayotgan inson iztiroblarini bundan boshqacha tarzda tasvirlash matn mazmuniga putur yetkazar edi.

Modern qissada yangi obraz yaratilar ekan, falsafiy, diniy, dunyoviy qarashlar yanada teranlashib, kishi shaxsiga yondashuv mezoni o'zgaradi. Insonning o'zini qayta kashf etib, ruh erkinligiga erishishi yoxud shaytanat fitnasiga mubtalo bo'lib, mahkumga aylanishi badiiy talqin qilinadi.

Bugungi adabiyotdagi qarashlar o'zgargan. O'quvchilar orasida yozuvchi tayyorlab qo'yan tayyor ma'nolarnigina axborot tarzida qabul qiluvchilar bilan birga o'ylashga, tasavvur qilishga moyil kitobxon ham yashayapti.

Bugungi o'quvchi har doimgidan ko'ra G'arb adabiyoti bilan kengroq tanisha boshladi. Dunyo adabiyoti bilan yaqindan tanishuv yo'lidagi tajribalar Nazar Eshonqul ijodida aniq ko'rinadi.

Yozuvchining keyingi yillarda yaratgan “Qultoy” hikoyasida ham insonning butun umr azoblangan va shunga duchor mavjudot sifatidagi manzarasi chiziladi. Hikoya qahramonining nomi Uljon. Yana bir bechoragina, mushtipar ayol obraziga duch kelamiz ushbu hikoyada. U mol izidan tayoq sudrab, umri qir-u adirlarda o‘tayotgan bir barzangi yigit. “Shundan so‘ng tog‘ Chit ustidagi, goh Tollidagi yaylovlarda oylab qolib ketishar, ota-bola pada ketidan yurib, o‘z izlaridan xuddi o‘z umrlarining yorqin va navqiron davrlarini birma-bir yoqib, keyin o‘chirishayotgandek tutab yotgan o‘choqlar bilan birga mol tezaklari qoldirgancha, gavronlari bilan sigir oyoqlari-yu o‘zlariga yoqmagan odamlar yelkasiga jizzaki fe‘llarining asoratlarini chizib, o‘zlarining goh yuvvosh, goh zardali kayfiyatlari kabi o‘zgaruvchan fasllar-u yillarni bu tog‘ yaylovlari va dasht-u dalalarga birma-bir almashtirib chiqishardi. Uljon maktabda o‘qimadi, uning borligini birov eslamadi ham. Shuning uchun xuddi dasht bo‘risi kabi jizzaki va sirkasi suv ko‘tarmaydigan qiziqqon bo‘lib o‘ydi. Oradan yillar o‘tib, balog‘at yoshiga yetgandagina, hujjat kerakligi yodiga tushdimi, Rajab cho‘pon bir qo‘zili qo‘yga eski tanishi orqali tug‘ilganlik guvohnomasini to‘g‘rilab oldi.” Uljon shu qadar hayvonlashganki, odamga ham moldan past nazar bilan qaraydi. Xotin zotini haqoratlash va urishdan ich-ichdan maroqlanadi. Bir gal kaltakka chidolmagan xotini otasinikiga ketib qoladi va birmas, ikkimas, to‘rt qaynisi kelib, uni “xuddi paxta savalashayotganday biri qo‘yib, biri savalaydi”¹. Shu payt maymoq bir ayol kelib, uning boshiga o‘zini tashlaydi-da, bor ovozi bilan qishloqdoshlarini yordamga chaqiradi. Bu mushtipar, haqorat va xo‘rlikdan jussasi kichrayib boryotgan ayol Uljonga “xola” – Arzixol edi. Shunda g‘alati bir holat ro‘y beradi: Uljon naq burniga tegib turgan ayolning ko‘krigidan “o‘ziga juda tanish” bir hidni tuyadi. “...Uljonning boshini tovon-u barmoqlari birlashib ketgan mayib oyoqlar bilan tug‘ilgani va ayni shu nuqsoni uchun sog‘lom va nuqsonsiz odamlar dunyosida bir umrga bo‘ynini qisib, boshini egib yurishga mahkum etilgani beri boshidan arimagan haqorat va xo‘rlikdan yilma-yil kichrayib borayotgan mittigina jussasi bilan to‘sis olgandek. Uljon naq burniga tegib turgan ayolning ko‘krigidan achimsiq ter va o‘ziga juda tanish bo‘lgan ko‘krak hidini tuydi: bir zum u bu hid qayerdan kelayotganini va bu hid dimog‘ida qachon va qanday o‘rnashib qolganini anglolmay, o‘zini kaltaklashayotganini ham unutilib, beixtiyor xuddi emayotgandek tamshandi. Tamshandi-yu, keyinchalik shu holatini eslab jahli chiqdi, sal bo‘lmasa, ikkita sigirning oyog‘ini gavroni bilan urib sindirayozdi. Ikki-uch oydan keyin xotini uyga qaytib, bolasini emizib turganini ko‘rdi-da, yana o‘sha hid esiga tushdi. Bu hid juda tanish, shu bilan birga notanish edi. Qisir sigirdan farqi yo‘q, bir maymoq to‘qolning ko‘krak hidi o‘ziga tanish bo‘lishi g‘azabini keltirdi...”² Lekin, “bu hid dimog‘ida qachon va qanday o‘rnashib” qolganini fahmlolmaydi. Kaltaklanayotganini ham unutilib tamshanib ketadi... Xullas, shu hid uni ta‘qib eta boshlaydi. Negadir bundan u g‘azablanadi. Bahona topib, Arzixolning yelkasiga gavron tushiradi. Ayol esa g‘irq etmasdan chidaydi. Chunki hammasiga : kaltak, tahqir, haqoratga allaqachon ko‘nikkan. Nima uchun degan haqli savol tug‘ilishi tabiiy. Asosiy jumboq va fojia ham ana shunda. Arzixol Uljonga xola emas, aslida ona. Pochchasi Rajab cho‘ponga esa asrandi o‘g‘il. Bu haqda hech kim, hech nima demagan. Rajab cho‘pon fe‘l-atvoridagi qo‘rslik, odamovilik, jizzakilik asrandi bolaga shundoq ko‘chib o‘tgan. Uljon maktabda ham o‘qimagan–g‘irt avom.

¹Nazar Eshonqul. Qultoy. (hikoya) // “Yoshlik” jurnali, 4-son, 2009. 45-bet.

²Nazar Eshonqul. Qultoy. (hikoya) // “Yoshlik” jurnali, 4-son, 2009. 45-bet.

Rajab cho'pon o'zi o'g'il ko'rganida, uning xotini Rohat bir haftalik chaqaloqning onasini o'ldiga chiqarib, uni uyiga olib kelmas, kasal bo'lib yotib qolgach esa badbaxt Arzixolga ham muhtojlik sezmasligi mumkin edi. Lekin, hayot insonning xohish-irodasi bilan hisoblashmagan va hisoblashmaydi ham. Shu uchun Arzixol opasinikida yashar ekan, ko'z ko'rib, quloq eshitmagan qiynoqlar boshiga tushadi. Qaynilar bilan bo'lgan janjaldan Uljonni u qotillikdan saqlab qoladi. "birdan ayolning chinqirig'ini eshitdi-qaydandir maymoqlanib Arzixol paydo bo'lgandi; u qaynilarning ataylab uchiga qotirilgan teri o'rnatilgan qamchilari momataloq qilayotgan Uljonning boshiga o'zini tashladi: endi qamchilar ayolning yelkasi aralash vizillar, Arzixol bor ovozi bilan qishloqdoshlarini yordamga chaqirgancha, xuddi yosh go'dagini bag'riga olib, bostirib kelayotgan balo-qazolardan asrayotganday Uljonning boshini tovon-u barmoqlari birlashib ketgan mayib oyoqlar bilan tug'ilgani va ayni shu nuqsoni uchun sog'lom va nuqsonsiz odamlar dunyosida bir umrga bo'ynini qisib, boshini egib yurishga mahkum etilgani beri boshidan arimagan haqorat va xo'rlikdan yilma-yil kichrayib borayotgan mittigina jussasi bilan to'sib olgandek"³. Uljon esa urib, uning qo'lini sindiradi. Shunda ham u o'zini aybdor sezadi. O'ziga o'lim tilaydi. Tersotaliklardan birontasi Uljonni koyiy boshlasa va u haqda yomon fikr bildirsa, Arzixol birdan "Aslida ayb menda..." deya uni himoya qilishga tushadi.

Nima jabr-u jafo ko'rmasin, u shu Uljonni deydi. Qashqirsifat shu yigit uchun jonini fido aylab kun o'tkazadi. Uning bu holatini tasavvur etish mumkin. Qiz chog'ida qir ortidagi qishloqlik bir chavandoz yigitni yaxshi ko'rgan. Bot-bot to'qayzorda uchrashib turgan. Yigitning ota-onasi cho'loq bir qizni kelin qilishga ko'nishmagan. Shu sababli "qamchisiga bandak to'qib bergani" chavandoz yigit g'oyib bo'lib, oradan oylar o'tsa-da, qorasini ko'rsatmagan. Qiz esa yurak yutib... Hech birovga gapirolmagan.

Arzixol malomatlarga chidab o'g'il tug'adi. Xolasi chaqaloqni olib ketgunga qadar va keyin ham uni emizadi. Nihoyat ajablanarli hol: yoshi ulg'aygan sayin Arzixoldan Uljon jirkanadi. Ko'rdimi, g'azablanib, nafrati oshib-toshaveradi. Uning qo'rs-qo'pol muomalasini davom ettirgan xotini va bolalarining bir mushtipar, g'ussakash ayolga munosabatlari har qanday odamni achintiradi. "Tovushi do'rillay boshlagan Uljonning bolalari ham uni xuddi otalariday jerkir, kelin esa tinim bermay ishga ko'mib tashlar, u esa yaroqsiz bo'lib qolgach, tashlab yuboriladigan uyunga o'xshab uydan haydalishtan cho'chigandek hech bir ishdan bo'yin tovlamas, o'zini keraksiz bo'lib qolyapman deb o'ylagani sayin Uljonning bolalaridan tortib, o'zi ham kampirga suyanib borar, uning og'rib yo kasal bo'lib yotib qolishini tasavvur ham qilisholmasdi"⁴.

Oradan uncha ko'p vaqt o'tmay, shunday kun keladi: Arzixol birdan yotib qoladi. Shu yotishda xazonrezgini o'tkazib, qishning naq chillasida joni uziladi. Uni so'nggi manzilga kuzatishga o'ntacha tersotalik va bir necha qarindoshlari yig'iladi. Aza ham azaga o'xshamaydi. "Maymoq" endi yo'q – tuproqqa eltib ko'miladi. Uljon shunda ham undan noroziligini yashirmaydi. Hikoyaning asosiy kulminatsion nuqtasi xuddi shuyerga qurilgan. Butun asar davomida Arzixolning kim ekanligi, ya'ni Uljonning onasi ekanligi bobosi tomonidan oshkor etiladi.

– Onam deb yo'qlang, bolam. Onam deng.

– Nega onam deyman? Onam o'lganiga o'ttiz yildan oshdi...

Bobo og'ir va chuqur xo'rsinadi. Ko'zlarini olib qochib, sekin pichirlaydi:

³Nazar Eshonqul. Qultoy. (hikoya) // "Yoshlik" jurnali, 4-son, 2009. 46-bet.

⁴Nazar Eshonqul. Qultoy. (hikoya) // "Yoshlik" jurnali, 4-son, 2009. 48-bet.

–Arzixol sizning tuqqan onangiz bo'ladi, bolam. Salom chavandoz uni badnom qilib ketgach, sizni Rohatga berdik. Aslida, sizni Arzixolning o'zi emizib katta qildi, bolam. U sizning haqiqiy onangiz...”

O'quvchini hikoya qator savollar girdobiga tortadi. Qismatning bu darajada chigalligiga sabab nima? Yozuvchi bu savollarga javob bermaydi. Ehtimol kitobxonni mulohaza yuritishga, o'ylashga chaqiradi.

References:

1. Quronov D Adabiyot nazariyasi asoslari. -Toshkent. 2018
2. Eshonqul N. Yalpiz hidi: Qissalar va hikoyalar. Toshkent: Sharq, 2008.
3. Hozirgi adabiy jarayon masalalari. -Toshkent. 2022
4. <https://tafakkur.net/ayol/abdulla-oripov.uz>
5. <https://kun.uz/uz/news/2019/03/30/camimiyat-va-ozaro-yaxlitlikning-yoqligi-eng-katta-muammomiz>

